

ROLI O‘YINLAR ORQALI BOLALARNI KASBLAR BILAN TANISHTIRISH

Yusupova Shaxzoda Sobir qizi

Qo‘qon universiteti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

O‘qituvchi Sanginova Gulnoza Boxodorovna

shaxzodayusupova29@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20157179>

Annotatsiya:

Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirishda rolli o‘yinlarning ahamiyati yoritilgan. Rolli o‘yinlar orqali bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlar shakllanishi, ularning ijtimoiylashuvi, tafakkuri va ijodiy qobiliyatlari rivojlanishi tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ta‘lim jarayonida elektron va interaktiv o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida rolli o‘yinlar bolalarning kasb tanlashga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, mustaqil fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar:

Rolli o‘yinlar, maktabgacha ta‘lim, kasbga yo‘naltirish, bolalar rivojlanishi, syujetli o‘yin, ijtimoiylashuv, kasblar olami, tarbiyachi faoliyati, elektron o‘yinlar, interaktiv ta‘lim, bolalar psixologiyasi, o‘yin texnologiyalari, kognitiv rivojlanish, ijodkorlik, hamkorlik.

KIRISH

Bolaning o‘sishi va har tomonlama rivojlanib borishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashy ova buyumlar orqali anglab, undan o‘zicha ma‘no topishiga intilishi, qiziqishi va hissiyotlarining rivojlanishini ular o‘ynayotgan o‘yinlari orqali kuzatish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun bu - hissiy boyitilgan va idrok etilgan tarzda o‘rganish uchun ideal sahnadir. Sahna o‘yini bolani har jihatdan rivojlantiradi. Zero, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar hayotda ko‘rgan voqea-hodisalarni kishilarga taglid qilib o‘ynaydilar. Bolalar kishilarga taglid qilish orgali real hayotiy muammolarni hal etishga o‘rinadilar. O‘z kechinmalarini takrorlaydilar, qayta o‘ynaydilar va jonlantiradilar. Shu tariqa, sahna o‘yini bolaning boshqalar bilan o‘zaro hamkorlik qilishga qobil bo‘lgan shaxs darajasiga o‘sib rivojlanishiga ko‘mak beradi.

Rolli o‘yin – hayotdagi mavjud bo‘lgan insonlar va harakatlarni obrazli tarzda aks ettirishdir. Rolli o‘yin bu yosh davridagi bolalarning muhim faoliyati hisoblanib, ular rolli o‘yinda katta yoshdagi insonlarning barcha ishlarini amalda bevosita “bajaradilar”. Shu sababdan o‘yin uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalarini birlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladi. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg‘usini, o‘zaro muomala va muloqotlarning xususiyatlarini, o‘zgalarga va atrofidagi insonlarga munosabatini rolli o‘yinlarda ijro etish orqali ifodalaydi. Buning uchun turli o‘yinchoqlardan va predmetlardan foydalanadilar.

Bolalarning rolli o‘yinlarini kuzatish davomida oilada kim unga ijobiy, kim salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini anglab olish mumkin. Sababi bola atrofida bo‘layotgan voqelikka ro‘yu-rost munosabat bildiradi. Rolli o‘yin bolalarda tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi. L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, D.B.Elkonin va boshqa ko‘plab olimlar bolaning bilish jarayonlari rivojlanishida rolli o‘yinlarning ahamiyatini o‘rgangan.

N.M.Aksarinaning fikricha, o‘yin faoliyati o‘zidan-o‘zi vujudga kelmaydi, buning uchun quyida uchta vosita bo‘lishi kerak.

«1.bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma-xil taasurotlar tarkib topishi.

«2.har xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta‘sir vositalarining muhayyoligi.

«3.bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi.

Psixolog Ye.A.Arkin o‘yinlarni quyidagicha tasnif qilgan:

1)ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, kasbhunarga oid o‘yinlar; 2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro‘zg‘or: bog‘chaga, maktabga, kundalik turmushga oid o‘yinlar; 3) harbiy : urush-urush o‘yinlari; 4) drammalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o‘yinlar. D.B.Elkonin harakatli o‘yinning qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi: 1) harakatga taqlid qilish; 2) muayyan syujetni drammalashtirilgabilann o‘yinlar; 3) syujeti oddiy o‘yinlar; 4) syujetsiz qoidali o‘yinlar; 5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari.

Bugungi unda ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat zamon talabi, balki zaruriy ehtiyojga aylangan. Rivojlanayotgan jamiyat sharoitida shaxsning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashi katta ahamiyatga ega. Kasb tanlashga bo‘lgan qiziqishning shakllanishi esa ilk bolalik davridan boshlanadi. Maktabgacha katta yosh davri shaxsning kelajakdagi intellektual, axloqiy, ijtimoiy hamda kasbiy qiyofasi shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu bosqichda ta‘lim-tarbiya jarayonini zamonaviy yondashuvlar, xususan, elektron o‘yinlardan foydalanish texnologiyalari asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Maktabgacha yosh —bu bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi, xatti-harakati va e‘tiqodlari shakllanib boradigan eng nozik davr hisoblanadi. Shu bois, bu bosqichda bola ongiga ta‘sir etuvchi barcha tarbiyaviy jarayonlar puxta o‘ylangan bo‘lishi zarur. Bolaning kasblar dunyosiga bo‘lgan qiziqishi ham ana shu davrda shakllana boshlaydi. Bola oilada, ko‘chada, bog‘chada yoki ommaviy axborot vositalari orqali turli kasb egalari faoliyatini kuzatar ekan, ularga nisbatan tasavvur hosil qiladi. Ushbu tasavvurlarni to‘g‘ri, ilmiy asosda shakllantirishga ko‘maklashish esa maktabgacha ta‘lim muassasasi pedagog-tarbiyachilarning zimmasidadir. Kasblar olami bola uchun tushunarli, qiziqarli va hayotiy misollar bilan boyitilgan holda yoritilsa, bola unda o‘zini biror kasb egasi sifatida tasavvur qilishi osonlashadi. Masalan, shifokor faqatgina ukol qiluvchi emas, balki inson salomatligini tiklovchi shaxs sifatida, insonlar hayotini turli kasalliklardan qutqaradigan soha vakillari; quruvchi esa uy barpo etuvchi hunarmand sifatida tanishtiriladi, tikuvchi go‘zallik yaratuvchi sifatida. Aynan maktabgacha ta‘lim jarayoni bolalarning kelajakdagi u yoki bu kasbga mehr qo‘yishlariva qiziqishiga zamina yaratadi. Kasbga yo‘naltirishning mazmuni faqatgina kasb nomlarini o‘rgatish bilan chegaralanmaydi. Balki kasbiy qiziqishlarni shakllantirish, mehnatga hurmat, mas‘uliyat, intizomva jamoada ishlash ko‘nikmalarini uyg‘otishdir. Bola uchun kasb tanlashga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayoni shaxsning kelgusidagi o‘zini-o‘zi anglashi, hayotiy maqsadni belgilashi uchun poydevor vazifasini ham bajaradi. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar bolalar hayoti va ta‘limi bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Elektron o‘yinlar (kompyuter o‘yinlari, planshet dasturlari, interaktiv o‘quv platformalari) nafaqat hordiq chiqarish vositasi, balki kognitiv rivojlanishning kuchli stimulatori sifatida e‘tirof etilmoqda. To‘g‘ri tanlangan, pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan elektron o‘yinlar bola

uchun nafaqat qiziqarli, balki o'rgatuvchi xarakterga ega hisoblanadi. Elektron o'yinlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Tavsifi Vizual va audio stimulyatsiya

Bola kasblar jarayonini rangli animatsiyalar, tovush va tasvir orqali yaxshiroq tasavvur qiladi.

Bola jarayonda bevosita ishtirok etadi, qarorlar qabul qiladi, bu esa motivatsiyani oshiradi.

O'yin shaklidagi ta'lim bola uchun zeriktirmasdan, faol fikrlashni talab etadi.

Bola virtual tarzda kasb egasi bo'lib ko'radi va o'z qobiliyatlarini sinab ko'radi

Bola topshiriqlarni mustaqil bajarishga harakat qiladi, bu esa o'z-o'zini boshqarishni kuchaytiradi.

“Virtual klinika” o'yinida bolaning vazifasi bemorni tekshirish, simptomlarni aniqlash, muolajalar tavsiya qilish bo'lishi mumkin. Bu jarayon orqali bola kasbning mohiyatini o'rgana boradi: shifokor —yordam beruvchi, mas'ul, mehribon shaxs.

Elektron o'yinlarni ta'lim jarayoniga to'g'ri qo'shish uchun tarbiyachi quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratishi lozim:

•**Didaktik tahlil:** O'yin bolaning yoshiga, psixologik rivojlanishiga, nutq darajasiga va mavzu maqsadiga mos bo'lishi lozim.

•**O'yin muhiti** bilan tanishtirish: Tarbiyachi bola uchun dastlabki ko'rsatma beradi, qoidalarni tushuntiradi. •**Faol o'yin jarayoni:** Bolalar mustaqil yoki kichik guruhda o'ynaydi, qarorlar qabul qiladi, tajriba o'tkazadi.

•**Pedagogik kuzatuv:** Tarbiyachi o'yin davomida bolalarning qiziqishi, qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlarini tahlil qiladi.

•**Muhokama va xulosa:** O'yin yakunida “Nima o'rgandik?”, “Qaysi kasb senga yoqdi?” kabi savollar orqali refleksiya olib boriladi.

Amaliy mustahkamlash: Rasm chizish, rolli sahna, qo'g'irchoqlar bilan mashg'ulot, mini mahorat darslari tashkil etiladi.

Elektron o'yinlardan izchil foydalanish quyidagi ijobiy natijalarni beradi:•**Kasblar haqida to'g'ri va to'liq tasavvur shakllanadi.**

•**Bola o'z qiziqishini** aniqlash va ifoda etish imkoniga ega bo'ladi. •**Ijodkorlik,** konstruktiv fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari rivojlanadi. •**Muloqot va hamkorlik qobiliyatlari** kuchayadi

•**Kelajakda kasbni** ongli ravishda tanlashga zamin yaratiladi.

Olgan bilimlarini, o'rgangan narsalarini amalda qo'llash, mashq qilish imkoniga ega bo'ladi. Buning natijasida bolaning ongi, bilish qobilyati, tafakkuri rivojlanadi. Jamoa bo'lib tashkil etilgan o'yinda uning barcha a“zolari o“rtasida o“zaro munosabatlar o'rnatiladi. Bu hurmat qilishga hamda o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishga o'rgatadi. Bolalarni har tomonlama rivojlantirish bilan birga, o'yin qoidalari ham takomillashib boradi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlari, intilishlariga qarab, o'yinga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi bolalar faoliyatini boshqaradi, ya'ni ularni o'yin mazmuni bilan tanishtirib, faol va mustaqil harakatlar bajarishga undaydi, qoidalarining to'g'ri bajarilishini nazorat qiladi. Bunday qoidalar (qachon va qayerda, qanday haraklarni bajarish, birgalikda ishlash, qiziqarli bo'lgan rollarni navbat bilan bajarish va hokazo) ishtirokchilarning munosabatlariga ta'sir korsatadi. Masalan, ayrim o'yinlarda bolalar berilgan topshiriqni

birgalikda bajarishlari kerak bo'ladi. Bunday o'yinlar bolalarni birlashtiradi, ular o'rtasida samimiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Bolalar topshiriqni navbat bilan bajarsalar, o'z o'rtoqlariniki bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'yin, mashg'ulot, sayr, kechki soat kabi pedagogik jarayonlarda tarbiyachi bolaning vositasi sifatida muayyan funksiyalarni bajaradi. Bunda tarbiyachining asosiy maqsadi bolaga bilim (ma'lumot) berish emas, balki shu ma'lumot orqali uning bilish jarayonlarini rivojlantirishdan iboratdir. Ikkinchi component-insonni ma'lumotga bo'lgan munosabati. Har qanday ma'lumot insonning u yoki bu narsa, hodisa va jarayonga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Lekin bu munosabat kattalar va bolalarda bir xil emas. Kattalar ma'lumotni qabul qilgandan keyingina unga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatni bildirishlari. Bolada esa eng avvalo, biz yetkazmoqchi bo'lgan ma'lumotga ijobiy munosabatni shakllantirishimiz lozim. Bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlaridan ta'lim masalalarini hal etishda foydalanish mumkin. O'yinni tashkil etish va boshqarish jarayonida tarbiyachi bola har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha bo'lgan yosh davri – inson rivojlanishining alohida davri bo'lib, bu davrda bola ijtimoiy muhitga moslashish, ma'naviy-axloqiy va hissiy jixatdan shakllanish bosqichida bo'ladi. Har bir bolaning psixologik va fiziologik rivojlanishi turli darajada bo'lishini hisobga olgan holda, bu davrda ularning hissiy va kognitiv rivojlanishi bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Shunday bo'lsa ham, bugungi kunda ushbu yosh davridagi barcha bolalarga samarali va ijobiy ta'sir ko'rsatadigan umumiy rivojlanish muhitini yaratish katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda syujetliro'lli o'yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning birgalikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish va ularda hamkorlik hissini shakllantirish juda muhim. Ko'p yillik pedagogik va psixologik tadqiqotlarning natijasi shuni ko'rsatadiki, bolalar o'rtasidagi jamoaviy munosabatlar tizimida o'yin alohida ahamiyatga ega. E.Smironova va V.Xolmogorovalarning fikrlariga ko'ra, ro'lli o'yinlar bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni ta'minlashga xizmat qiladi, chunki bola o'yin davomida o'z harakatlarini boshqalar bilan muvofiqlashtirish zaruriyatiga duch keladi, qoidalarga amal qiladi va boshqalarga yordam beradi. Demak, ro'lli o'yinlar nafaqat bolalarning jamoaviy faoliyatini yo'lga qo'yish, balki ularda hamkorlik hissini rivojlantirish, bola shaxsiyatini shakllantirish vositasi hamhisoblanadi. L.Vygotskiy, R.Jukovskaya, I.Zaporojets, N.Mixaylenko, N.Korotkova, V.Usova singari olimlar o'z asarlarida o'yinlar va ularning maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishidagi rolini o'rganishgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yuldasheva Shoxida Botirovna Nukus innovatsion instituti Maktabgacha va boshlang'ich talim kafedrası assistent o'qituvchi.
2. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna Farg'ona Davlat Universiteti Psixologiya kafedrası o'qituvchisi, Sobirova Azizaxon Maribjon qizi Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3- bosqich talabasi
3. irzoyeva Nigora Shavkatjonovna SamDPI pedagogika kafedrası o'qituvchisi
4. Yuldasheva Shoxida Botirovna Nukus innovatsion instituti Maktabgacha va boshlang'ich talim kafedrası assistent o'qituvchi